

ALISHER NAVOIYNING KOMIL INSON KONSEPSIYASI: STRUKTURASI VA FUNKSIONAL TAVSIFI**Xaidarov R.E. -***Qo'qon Universiteti Andijon filiali
dotsenti, PhD*

Insoniyat tafakkuri tarixida shaxs kamoloti va insonning ma'naviy yetukligi masalasi doimo falsafaning markaziy muammolaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa Sharq falsafiy tafakkurida insonning ruhiy va axloqiy kamoloti jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin etilgan. Bu borada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Navoiy merosida komil inson g'oyasi insonning nafaqat axloqiy fazilatlarini, balki uning ijtimoiy faoliyati, ma'naviy yetukligi va jamiyat oldidagi mas'uliyati bilan ham chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Mutafakkir insonni koinotning eng ulug' va sharaflil mavjudoti sifatida baholab, uning asosiy vazifasi o'zining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish orqali komillikka erishish ekanligini ta'kidlaydi.

Mamlakatimizning osuda hayot tarzini saqlab qolish uchun antropogen va texnogen tahdidlarni o'z vaqtida aniqlab, ularga nisbatan o'zining fuqarolik pozitsiyasini ifodalab beruvchi yeomil insonlarni tarbiyalash Yangi O'zbekiston jamiyati uchun muhim vazifalardan biri sanaladi. Sh.M.Mirziyoev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi" bobidagi qarashlarida "Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy"[1.286], deya mahallaning ma'naviy hayotini ta'minlash va takomillashtirishni nazarda tutib, bunda oliy ta'lim muassasalari, mahalla va hokimiyat institutlari o'rtasida madaniy munosabatlar ta'minlanishi rivojlanishning omillaridan biri ekanligini belgilab beradi. Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasida inson farz va sunnat amallarni bajarishi davomida rivojlanishi ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, o'sha davrda bosh institut sifatida masjidlar va unda o'qiladigan va'zlarning mazmundorligiga etibor qaratgan. Qiyosiy tarzda o'xshashlikka etibor qaratsak, ma'rifiylashtirish jarayoni nomaqbul harakatlardan saqlovchi, osuda hayotning ta'minlovchisi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mutafakkir bu jarayonda "maqbul" va "nomaqbul" tushunchalarini qo'llab, "nomaqbul"da inson manfaatiga, hayot tarziga zid bo'lgan holatlarni ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, "xashan" (hunuk) va "hasan" (chirouli) mazmundorlikni belgilab, va'z – hikmat idealga etish uchun yo'l ekanligini ko'rsatib o'tadi"[2.90].

Jamiyat hayotini ta'minlovchi va rivojlantiruvchi inson sanalib, bunda insoniylik hayot yo'lini bosib o'tgan nuroniylar ijtimoiy etakchi sifatida yoshlarga ibrat bo'la oladilar. "Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy"[1.286] tamoyilining hayotga tatbiq yetilishi, insonning shaxsiy, kasbiy hayotida yuz berishi mumkin bo'lgan turli voqea va hodisalardan saboq olib, o'zining shaxsiy hayotini tanlash masalasi "ijtimoiy muhandislik" faoliyati bilan shug'ullanishni anglatadi. Nuroniy o'zlarida mental xarakterni ifoda yetib, bobo yoki buvi sifatida oila a'zolari, mahalla yoshlari va ularning xulq-atvori uchun ijtimoiy mas'ul ekanliklari o'z aksini topgan. Navoiy bu masalaga ibratli shaxslarning hayot yo'lidan misollar keltirib, insonlarni kamolotga yo'naltirgan. Jumladan, "Ey inson, vujuding uyi xuddi shu xashakning o'zidir; zaif taning bir hovuch tuproq. Bu hashakka qachongacha o't qo'lasan? Bu tuproqni qachongacha sovrasan?"[2.109] deya "o't qo'yish" va "sovrish" - besamar hayotguzaronlikni tanqid qilib, insoniylikka intilib yashashga xitob qilgan. Nuroniy esa, yosh ko'rsatkichi bo'yicha ham, hayotiy tajribaga egaliklari bilan ham yoshlar uchun ijtimoiy muhandislik vazifasini bajara oladilar. Ziyolilik ibrati yoki nuroniylik hikmati bo'lishidan qat'iy nazar kamol topish tarbiyaga, ta'limga asoslangan bo'ladi. Alisher Navoiyning sakkiz bochqichli kamol topish zinapoyasida o'n yoshgacha bo'lgan davr anglash bilan ijtimoiy hayotga kirishish bilan ovora bo'lish davri ekanligi ta'kidlanadi.

"Ma'naviy-axloqiy tarbiya dasturi"[1.287] esa, jamiyatning ma'naviy hayotining poydevori sanaladi. Sh.M.Mirziyoev ma'naviy-axloqiy tarbiyani ijtimoiy tizimning muhim elementlaridan ekanligini nazarda tutadi. Chunki ta'lim-tarbiya muassasalari, mahalla, nuroniy va xotin-qizlar kabi tashkilotlar bevosita ijtimoiy institut sifatida tarbiyaviy funksiyani bajarib, yoshlarning kamol

topishi uchun ularni ijtimoiy mobilligini ta'minlay oladi. Alisher Navoiyda, aniqrog'i uning Komil inson konsepsiyasida "O'zlik uyi" shamchirog'ini yoqishda bu institutlar nur sochuvchi ham sanaladi. Navoiy "Hayrat ul-abror"ning bir nechta maqolatida Firdavsiyning "Shohnoma" asaridagi obrazlardan foydalangan holda kamol topish yo'llarini belgilashga undaydi. "Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi"ni tarixiy-falsafiy jihatdan chuqur o'rganib, ibratli jasorat namunalarini yoshlar orasida ommaviylashtirish tarbiyaviy ehtiyoj sanaladi. Buni chuqur anglagan Sh.M.Mirziyoev "Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi" turkumida risolalar tayyorlash va yoshlar orasida targ'ib qilishni vazifa sifatida belgilab bergan. Bu o'rinda "Sohibqiron Amir Temur harbiy san'ati" kitobida "Amir Temurning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi; atoqli sarkarda tarzida yorqin namoyon bo'ladi" [3.8], degan falsafiy hukm ham e'tiborga molik. Buyuk sarkarda sifatida markazlashgan davlatni barpo etish yo'lidagi Amir Temurning jasorati yoshlarimiz uchun hamisha ibrat maktabi bo'ladi.

Yangi O'zbekiston jamiyatining ma'naviy yangilanish bosqichida yangicha tafakkurga ega, bunyodkorlik ruhida tarbiyalangan yoshlar milliy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Alisher Navoiy merosida ma'naviy barqaror hayot insonning komillikka intilishi orqali shakllanishi ta'kidlanadi. Bu jarayonda ishlab chiqarish kuchlarining dialektikasi nafaqat moddiy, balki ma'naviy mazmunga ham ega bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning yagona maqsad asosida tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar jamiyatning muhim ishlab chiqaruvchi kuchi sifatida muayyan siyosiy va ijtimoiy muhitda shakllanadi. Ularning "Men kimman?" degan savol ustida mushohada yuritishi inson hayotining mazmun-mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Komillikka erishish esa, avvalo, shaxsning o'z sa'y-harakati bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda adabiyot, san'at, din, fan va texnika inson dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

Eronlik faylasuf Muhammad Rashshod insonni anglash jarayonida uning tarixiy ildizlariga falsafiy yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson mohiyatini tushunish ikki jihat — jismoniy tabiat va aqliy salohiyat uyg'unligi bilan belgilanadi[4.375]. Shu bois u insonshunoslikda "ijtimoiy muhandislik" yondashuvi orqali aqliy kamolotga alohida e'tibor qaratadi.

Komil inson konsepsiyasining to'rt ustunida ma'naviyat ularni o'zaro bog'lovchi omil, aql esa ularni rivojlantiruvchi asosiy manba sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar Hasanxon Yahyo va Husaynxon Yahyolar Alisher Navoiy falsafasida Qur'oni karim muhim tafakkur manbai sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlab, komillikka erishishda uning chuqur ma'naviy mazmuni alohida ahamiyatga ega ekanini qayd etadilar[5.16-17].

Komillik bosqichli tarzda sifat va son ko'rsatkichlaridagi ma'nilik asosida rivojlansa-da, fikr tarbiyasi kelajak hayotini ta'minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Navoiy "fano va baqo"[5.17-18] haqida munosabat bildirib, boqiylikni ta'minlash insonning o'z qo'lida ekanligini uqtiradi. A.Kamyu esa, "qo'zg'alonchi inson" namunasida insonni o'zi bilan o'zi kurashishi kamol topish jarayonini ta'minlash tarzida amal qilishini uqtiradi. Yangi O'zbekistonda ma'naviy yangilanish masalasi dolzarb bo'lib turgan bir davrda ibratli insonlarni tarbiyalash ijtimoiy hayot osuda kechishini ta'minlovchi shartlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Osuda so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "[forsa – tinchlangan; tinch, osoyisha, xotirjam] Tinch, betashvish; xotirjam"[6.150]. "Osoyishta [forsa – tinch, xotirjam; beg'am] 1 Urush-janjaldan, g'avg'o-tashvishdan holi; tinch bexavotir, xotirjam. 2 Hayajondan, iztirobdan holi, betashvish. 3 Xotirjam, bamaylixotir, bosiq"[6.147], degan ma'nolarni bildirib, komillikka erishganlik ijtimoiy-biologik jarayonning yuqori cho'qqisi sanaladi. Shu sababli, I.Haqqul komil insonning badiiy konsepsiyasida sifatlar majmuasiga ustuvorlik berib, ularni go'zallikni ta'minlovchi manba deb bilgan[7.68]. R.Samarov komillikka erishishda simvolizm va badiiyatning amal qilishini kamolot jarayonining xossalari tarzida belgilab beradi. Olimning fikricha, "Inson o'zi uchun biron bir ramzni tanlab, ongli tarzda harakatlar ketma-ketligini amalga oshiradi. Natijada individual ma'naviy dunyoning substansiyasi munosabat ko'rinishida o'zini namoyon etadi"[8.191]. Navoiy Yaratuvchi zotni "Qudratli dehqon"[9.50] deb bilib, insonlarning ruhiy madad olishining manbasi "Qudratli dehqon"da ekanligini inobatga olib, manzil obodligini ko'ngil obodligidan boshlashni etirof etadi. Komil inson konsepsiyasining "Inson va jamoa" ustunida alohida insonning o'zi va yaqinlari, turli

xil kasb-kor egalarining birligi, taqvoli kishilarning etiқodi mujassamlashgan bo‘lib, jamoaviylik individual birlik asosida amal qilishini nazarda tutgan. Inson boshqa bir insonning sifatlarini etirof etib, uni egallash uchun harakat qiladi. “Agar vujuding gulshanida gul g‘unchasi ochilsa, sen bu ko‘ngil g‘unchasi shu, deb o‘ylama”[9.50], deb jamoa a‘zolaridan sen o‘zingning sifatlarining bilan ustuvor emassan, balki sendan-da ustun turuvchi zotlar borligini tushuntirmoqchi bo‘ladi.

Inson konsepsiyasining strukturaviy va funksional mohiyatiga etibor qaratsak, Alisher Navoiy tomonidan ilgari surilgan komillik g‘oyasi falsafiy mazmundorligi jihatidan boshqa bir ta‘limotlardan ajralib turadi. Har bir ustun (“Inson va tabiat”, “Inson va tarix (din)”, “Inson va jamoa”, “Inson va muhit”) insonning bosqichli rivojlanishi uchun amal qiladi. Sakkizinchi bosqichda “fano va baqo” masalasi inson uchun dolzarblashadi. Patras Brajenas “Inson umrining so‘ngi bosqichi uni o‘tmishga nazar solishni taqozo yetadi”[10.152] deb badiiylikning takomillashuvini nazarda tutgan. Komil insonning teologik modelida har bir diniy ta‘limotning bosh g‘oyasi mujassamlashgan. Komil insonning pedagogik modelida sifatlar majmuasini o‘zlashtirish asosida ijtimoiy-biologik rivojlanish ko‘rsatiladi. Lekin konsepsiyaning zamirida inson, konsepsiyani yaratuvchisi ham inson ekanligi, inson va tabiat, inson va texnika, inson va siyosat, inson va axloq, inson va predmet tarzidagi munosabatlar ifodalanganligi inobatga olinmagan. Bizningcha, shu sababli komil insonning falsafiy modeli boshqa bir modellardan takomillashganligi bilan ajralib turadi.

O‘z zamonasida komil insonni jamiyat hayotini ta‘minlovchisi va rivojlantiruvchisi ekanligini aniq tasavvur yetgan mutafakkir komil inson konsepsiyasida har bir omilning ob‘ektiv va sub‘ektiv jihatlarini inobatga olgan holda yondashgan. Natijada ideal harakatga keltiruvchi, motivlashtiruvchi kuch bo‘lib, ta‘qiqalar jarayonni silliq kechishi uchun shart sanalishi belgilab qo‘yilgan.

Inson konsepsiyasi bu orzudagi kamol topishning yuqori cho‘qqisini egallab, boshqalar uchun namuna bo‘luvchi insonga oid qarashlar majmui sanaladi. Shu sababli, teologik, badiiy, falsafiy yondashuvlarda qarashlarning asosini o‘sha ta‘limotning g‘oyalari tashkil qiladi. Navoiyning Komil inson konsepsiyasi:

birinchidan, “Inson va tabiat” aloqadorligini o‘zida mujassam etadi (tabiat qonuniyatlarini o‘rganib, o‘zining yehtiyolarini qondirish uchun tabiat in‘omlaridan fudalanish, tabiat injiqliklarini bilib, tabiiy xatarlardan o‘zini asragan). Bunda tabiatga bo‘lgan munosabat tarzi ifodalaniб, axloqning alohida bir turi sifatida tabiatga bo‘lgan munosabat o‘z aksini topgan;

ikkinchidan, “Inson va tarix” (Insoniyat o‘z tarixi davomida bosib o‘tgan yo‘llarini o‘rganib, ijtimoiy-reallikda paydo bo‘ladigan muammolarni echish yo‘lini topishda o‘tmish tajribasidan fudalanishni nazarda tutgan. Bunda antroposotsiogenez jarayonida vujudga keladigan muammolar inobatga olingan). Tarix bu evolyusion o‘shish yo‘li davomida insoniyat tomonidan qo‘lga kiritgan moddiy va ma‘naviy boulik. Ularni o‘rganib, olingan saboqlar asosida hayot yo‘lini belgilash hayot mazmunini ta‘minlaydi;

uchinchidan, “Inson va jamoa” (Ibtidoiy davrda ham inson jamoaviy tarzda ovga chiqqan, jamoaviy tarzda vaxshiy hauvonlardan o‘zlarini himoya qilishgan. Jamiyat hayotining rivojlanishi davomida inson oila, mahalla, kasbiy faoliyatdagi kasbdoshlar, vatandoshlar bilan bevosita aloqadorlikda istiqomat qilib, hayot tarzini ta‘minlagan). Jamoa ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida ma‘lum antropogenezik belgilar asosida, aniq maqsad bo‘yicha harakatlarni amalga oshirishni ta‘minlovchi ijtimoiy-biologik birlik sanaladi;

to‘rtinchidan, “Inson va muhit” (Muhit geografik, tarixiy va madaniy jihatlarini bilan o‘z mazmundorligiga ega. Komil insonni tarbiyalashda yesa, muhit birinchi navbatda ma‘naviy hayotni anglatadi). Inson hayotguzaronlik qiladigan makondagi maishiy qonuniyatlar, ijtimoiy meyorlar va ma‘naviy qadriyatlarini o‘zlashtirib, jamiyat hayotiga kirishadi.

Konsepsiyada qarashlar majmuasi to‘rtta ustunning amal qilishini ta‘minlashga qaratilganligini kuzatish mumkin. Navoiy diniy axloq va diniy qarashlar asosida:

- a) insonning xulq-atvor turlarini;
- b) insonning faolligini ta‘minlovchi ibrat va namunaga;
- v) insonning insoniylik jihatidan ma‘no va mohiyatini ta‘minlovchi ma‘naviyatga;
- g) inson o‘zini anglashi uchun vijdon, etiқod va xissiyotlariga;

- d) insonning kamolot jarayoni ijobiy kechishi uchun axloqiy tamoyillarni;
- ye) jamiyatni rivojlantirishda insonning ijtimoiyligi, bunda shijoat, jasorat va etuklikka erishilganlikni xis eta bilish;
- j) kamolotni ta'minlashda diniy etikaning amal qilishini;
- z) insonning o'zida ifodalangan salbiy sifatlarni silliqlash uchun ideal yoki hayotiy qahramon lozimligini tavsiflab bergan.

E'tiborli jihati shundaki, mutafakkir nazmiy bayon bilan komillikning barcha jihatlarini ijtimoiy-madaniy munosabatlarda ustuvor turishini ifodalab, konsepsiyaning: tuzilmaviy jihati (istak, xis-tuug'ular, maqsadni belgilab olish); ma'naviy jihati (komillik tushunchasining ijtimoiy-madaniy mazmundorligi, qaytarilmas ma'naviy ko'rinishga ega ekanligi); substansion jihati (inson hamisha kamol topishga intilishi uchun unda birlamchi asos - Navoiyning fikricha, iymon, e'tiqod va ishonch) shakllangan bo'lishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy tomonidan ilgari surilgan komil inson konsepsiyasi markazida insonning ma'naviy, ruhiy va ijtimoiy kamolotini ta'minlashga qaratilgan g'oyalar mujassamdir. Ushbu konsepsiyada antropo-sotsiogenez jarayoni muhim nazariy asos sifatida namoyon bo'lib, inson kamoloti jarayonida yuzaga keladigan muammolar antropogen xarakterga ega ekanligi ta'kidlanadi:

birinchidan, Navoiyning Komil inson konsepsiyasi shakllanishida insoniyatning o'tmishi afsona, rivoyat va hikoyatlar shaklida, insoniyatning buguni ijtimoiy kuzatuvning natijasi ko'rinishidagi ijtimoiy bilim va tajriba tarzida va insoniyatning kelajagi – kelgusi avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasi mutafakkirning “ijtimoiy muhandislik” faoliyatining mazmunini ifoda etganligini;

Shu asosda quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Komil inson konsepsiyasini ta'lim tizimi, ayniqsa falsafa, ma'naviyat va madaniyatshunoslik fanlari doirasida chuqur o'rganish va targ'ib qilish zarur.
2. Insonning o'rganish va bilish jarayoni orqali kamol topishini inobatga olgan holda, ijtimoiy va madaniy me'yorlarni shakllantirishga qaratilgan ma'rifiy faoliyatni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.
3. Ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy-ma'rifiy platformalarda “Ijtimoiy va madaniy meyorlarning shakllanishi va takomillashuvi” mavzusida muntazam ma'rifiy chiqishlar tashkil etish lozim.
4. Jamiyatda antropogen muammolarning oldini olish maqsadida komil inson g'oyalariga asoslangan ma'naviy-tarbiyaviy dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan muhim ijtimoiy-falsafiy ta'limot sifatida bugungi kunda ham o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021
2. Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. (яхшилар хайрати). Насрий баён қилувчи А.Хайитметов. – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
3. Соҳибқирон Амир Темур ҳарбий санъати [Матн] Р.Самаров, С.Ахроров, Ж.Холмўминов, С. Садриддинов. – Т.: “Маънавият”, 2022
4. Мухаммад Рашшод . Фалсафа аз оғози таърих. – Д.: Ирфон, 1990.
5. Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Хусайинхон Яҳё Абдулмажид. Навоийдан чу топқайлар навое. – Т.: “Ҳилол-нашр” 2023.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. Н – Тартибли. Тузатилган 2-нашр. Масъул муҳаррир А. Мадвалиев. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020.
7. Ҳаққул Иброҳим. Касби камол ўзни танишдир [Мант] шарҳ, таҳлил ва талқинлар. – Т.: “Yoshlar matbuoti”, 2021.
8. Самаров Р. Инсон камолотини таъминлашда адабиёт: структуравий-функционал жиҳат. Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий методик электрон журнал №1 2017.

9. Алишер Навоий, Хамса: “Ҳайрат ул-аброр”. Насрий тадбил / Манзар Абдулхай тадбили. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2021 йил.

REZYUME:

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning komil inson haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mutafakkir merosida inson kamoloti, maʼnaviy yetuklik va axloqiy mukammallik gʻoyalarning nazariy asoslari ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: komil inson, maʼnaviyat, ijtimoiy falsafa, antropologiya, axloqiy kamolot, ijtimoiy muhit.

РЕЗИОМЕ:

В статье проводится социально-философский анализ концепции совершенного человека в творческом наследии Алишера Навои. Рассматриваются основные философские аспекты формирования духовной зрелости и нравственного совершенства личности.

Ключевые слова: совершенный человек, духовность, социальная философия, нравственность, общество.

RESUME:

This article analyzes the socio-philosophical aspects of the concept of the perfect human in the works of Alisher Navoiy. The study explores the theoretical foundations of spiritual maturity, moral perfection, and human development within his philosophical heritage.

Keywords: perfect human, spirituality, social philosophy, moral development, society.